

**PUSHTIRANG POMIDOR NAV VA DURAGAYLARI SELEKSIYASI UCHUN  
BOSHLANG'ICH MANBA****ИСХОДНЫЙ МАТЕРИАЛ ДЛЯ СЕЛЕКЦИИ РОЗОВОПЛОДНЫХ СОРТОВ И  
ГИБРИДОВ ТОМАТА.****A PRIMARY RESOURCE FOR THE SELECTION OF PINK TOMATO VARIETIES  
AND HYBRIDS*****Almatov B.****Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ITI tayanch doktoranti****Aramov Muzaffar Xoshimovich***

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti Meva-sabzavotchilik, uzumchilik  
va issiqxona xo'jaligi kafedrasi mudiri, q.x.f.d., professor  
[aramov-muzaffar@mail.ru](mailto:aramov-muzaffar@mail.ru) (+998 91 235 61 61)

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston janubida pushtirang pomidor nav ap duragaylari seleksiyasi uchun boshlang'ich manba yaratish bo'yicha tadqiqotlar natijasi keltirilgan. Vegetatsiya davri, meva vazni, o'simlik balandligi, hosildorlik bo'yicha istiqbolli navlar ajratilgan va ular seleksiya ishlari uchun boshlang'ich manba sifatida tavsiya etildi.

**Kalit so'zlar:** pomidor, pushtirang, meva vazni, o'simlik balandligi, hosildorlik, vegetatsiya davri.

**Аннотация.** В статье приведены результаты исследований по выявлению исходного материала для селекции розовоплодных сортов и гибридов томата на юге Узбекистана. Выделены сорта перспективные по урожайности, массе плода, высоте растений, вегетационному периоду и предложены в качестве исходного материала.

**Ключевые слова:** помидор, розовоплодный, масса плода, высота растений, урожайность, вегетационный период.

**Annotation.** The article presents the results of research to identify the source material for the selection of pink-fruited tomato varieties and hybrids in the south of Uzbekistan. Varieties that are promising in terms of yield, fruit weight, plant height, and growing season have been identified and proposed as source material.

**Key words:** tomato, pink-fruited, fruit weight, plant height, yield, growing season.

**Kirish.** O'zbekistonda sabzavot ekinlari ichida pomidor eng ko'p ekiladi. Pomidor mevalarining keng miqyosda ishlatalishi ularning yuqori oziqaviy qiymati bilan belgilanadi. Pomidor mevalarining biologik qiymati nihoyatda yuqori. 1 kg tarkibida, mg: vitamin C-250-300; β -karotin-15-17; vitamin V<sub>1</sub> (tiamin) -1-1,2; vitamin V<sub>2</sub> (riboflavin) -0,5-0,6; vitamin RR (nikotinik kislota) - 4,1-4,5; likopen-30-35; vitamin V<sub>9</sub> (foliy kislotasi) - 0,75; N vitaminini (biotin) -0,04 mavjud.. Mevalarda shakar (2,5-3,5%), oqsillar (0,6-1,0), organik kislotalar (0,4-0,6), yog'lar va efir moylari (0,2%) oz miqdorda topilgan. Pomidorda juda ko'p turli xil mineral tuzlar mavjud [1].

Pomidor mevalari yuqori parhezboplilik va shifobaxshlik xususiyatlari ham ega. Pomidor mevalarini kundalik ratsionda iste'mol qilish inson organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Respublikamizda so'ngi yillarda aholini oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jaligi, xususan, sabzavot

mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondirish maqsadida sabzavotchilik tarmog‘ida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sabzavot ekinlari, jumladan pomidor yetishtirishning yangi innovatsion texnologiyalari joriy etilmoqda. Hozirda respublikamizda 200 ming gektardan ortiq maydonga sabzavot ekinlari yetishtirilayotgan bo‘lsa, shundan 45,8 foiziga pomidor ekini ekilib, o‘rtacha hosildorlik gektariga 24 tonnani tashkil etmoqda [2]. Keyingi yillarda pushtirang pomidor nav va duragaylariga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Pomidor bozorining 30% ni pushtirang pomidor nav va duragaylari egallashi bashorat qilinmoqda. Respublikamizda Sevara, Bahodir, Darxon kabi pushtirang pomidor navlari yaratilgan va davlat reestriga kiritilgan. Ammo, ular transportbopligi, tashqi ko‘rinishining jozibadorligi, tashqi muhitning stress faktorlariga chidamliligi, eksportbopligi kabi belgilari bilan hozirgi bozor talablariga javob bera olmaydi. Shundan kelib chiqib transportbop va eksportga yaroqli pushtirang pomidor nav va duragaylari yaratish shu kunning dolzarb masalalaridan biridir.

**Tadqiqot ob’ekti va uslublari.** Tadqiqotlar 2022-2023 yillarda SPE va KITI Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasida olib borildi. Turli mintaqalardan keltirilgan 33 ta nav namunalari tadqiqotlar ob’ekti bo‘lib xizmat qildi. Tajriba qaytariqsiz. Hisob bo‘lmachasi maydoni  $4,5 \text{ m}^2$ . Bo‘lmacha 2 qatorli. Bo‘lmachada o‘simgiklar soni 20 ta. Ekish sxemasi 90x25sm. Tajribada o‘rta mevali nav namunalari uchun standart sifatida Sevara, yirik mevali nav namunalari uchun esa Baxodir navi olindi. Standart navlar har 10 ta nav namunasidan keyin joylashtirildi.

Tadqiqotlar Методические указания по изучению и поддержанию мировой коллекции овощных пасленовых культур (томаты, персы, баклажаны) [ВИР. Л, 1977] [3], Методика полевого опыта (Б.А.Доспехов, 1985) [4], Руководство по апробации овощных культур и кормовых корнеплодов (М., «Колос», 1982) [5] kabi uslub va uslubiy ko‘rsatmalar asosida olib borildi.

**Tadqiqot natijalari.** Pomidorning pushtirang tur xiliga mansub nav va duragaylari urug‘i 2 fevral kuni issiqxonada kassetalarga ekildi va ko‘chatlar 30 martda ochiq maydonga o‘tzazildi.

O‘rganilayotgan nav namunalarini vegetatsiya davrining davomiyligi bo‘yicha quyidagicha guruhlarga bo‘lindi. Juda ertapishar, ya’ni vegetatsiya davri 100 kungacha bo‘lgan o‘rta mevali Sevara, A-17, Ляна розовая va o‘rtapishar, amal davri 100-103 kun bo‘lgan Малиновый мёд, Румянный мужичок Ф1, Розовый-484, Свадба в Малиновке nav namunalariga ajratildi. Yirik mevali NA-17, Ye-50, Новичок розовый, Инжир Розовый, kabi nav namunalarida vegetatsiya davrining davomiyligi 96-99 kun bo‘lib, ular ham juda ertapishar hisoblanadi. Ertapishar , ya’ni vegetatsiya davri 101-110 kun bo‘lgan NC-10, F1 Розовый десертный kabi yirik mevali nav namunalari ajratildi. Baxodir, Darxon, Малиновый gigant navlari kechpishar bo‘lib, vegetatsiya davri 116-120 kunni tashkil etdi.

#### *1-jadval.*

*Pushti rang pomidor nav namunalarining xo‘jalik muhim belgilari bo‘yicha tavsifi, 2022-2023 y.y.*

T/r	Nav va duragaylar	Yoppasiga unib chiqqandan mevalarning dastlabki pishishigacha	O’simlik balandligi, sm	Meva vazni, g	Umumiyl hosildorlik, t/ga	Qiyosiy navga nisbatan, %

		bo'lgan davr, kun				
O'rta mevali nav namunalari						
1	Sevara, st.	92	43	95	65,8	100
2	Ляна розовая	90	69	71	94,4	143,4
3	A-17	97	118	90	79,0	120,0
4	Малиновый мёд	100	111	99	73,1	111,0
5	Свадба Малиновое	101	114	93	70,7	107,4
6	Румяний мужичок Ф <sub>1</sub>	103	75	92	73,4	111,5
7	Розовый-484	103	66	108	66,8	101,5
Yirik mevali nav namunalari						
8	Baxodir,st.	121	120,5	254	38,5	100
9	N A-17	96	70	186	59,1	153,5
10	Инжир Розовый	98	122	190	44,2	114,8
11	Ye-50	99	80	165	90,2	234,2
12	Новичок розовый	99	59	131	52,6	136,6
13	Дусха Сибири Ф <sub>1</sub>	102	97	148	49,3	128,0
14	N P-7	104	95	182	64,2	166,7
15	Велможа	105	137	219	55,3	84,0
16	NC-10	107	115	193	41,7	108,3
17	Ф <sub>1</sub> Розовый десертный	109	85	116	57,2	148,5
18	Darxon	116	136	240	59,4	154,2

O'simlik balandligi bo'yicha o'rganilgan nav namunalari quyidagi guruhlarga ajratildi:

- o'simlik balandligi 31-50 sm bo'lgan determinant navlar – Sevara;
- o'simlik balandligi 51-90 sm bo'lgan yarim determinant navlar – Румяный мужичок Ф<sub>1</sub>, Розовый-484, Ляна розовая va yirik mevali nav namunalari NA-17, Ye-50, F<sub>1</sub> Розовый десертный, Новичок розовый;
- o'simlik balandligi 91-150 sm bo'lgan indeterminant navlar – Малиновый мёд, Свадба в Малиновке, A-17 o'rta mevali va Baxodir, Darxon, N P-7, NC-10, Инжир Розовый,

Велможа каби yirik mevali nav namunalari ajratildi. Sanoat asosida yetishtirishga mos pomidor navlari seleksiyasi uchun bos'hlang'ich manba sifatida birinchi va ikkinchi guruhga kiruvchi navlar istiqbolli bo'lib hisoblanadi.

Yeng muhim belgilardan biri – meva vazni bo'lib hisoblanadi. Mevaning vazniga ko'ra o'rganilgan navlar 3 ta guruhga ajratildi. Birinchi guruhga o'rta mevali-mevasinig vazni 51-100 g bo'lган Sevara, Малиновый мёд, Румянный мужичок Ф<sub>1</sub>, Свадба в Малиновке, А-17, Ляна розовая nav namunalari kiritildi. Ikkinci guruhga katta mevali-mevasinig vazni 101-200 gramm bo'lган Розовый-484, NA-17, NP-7, NC-10, E-50, Дусха Сибири Ф<sub>1</sub>, Ф<sub>1</sub> Розовый десертный, Новичок розовый, Инжир Розовый kabi nav namunalari kiritildi. Uchinchi guruhga juda katta mevali-mevasinig vazni 200 grammidan katta bo'lган Baxodir, Darxon, Велможа nav namunalari kiritildi.

Ajratilgan istiqbolli nav namunalarida yeng yuqori umumiyy hosildorlik o'rta mevali nav namunalarida A-17, Ляна розовая navlarida kuzatildi. Umumiyy hosildorlik us'hbu navlarda 79,0-94,4 t/ga ni tas'hkil yetdi va bu qiyosiy navga nisbatan 20,0-43,4 % ga yuqori bo'lди.

Yirik mevali navlarda yeng yuqori umumiyy hosildorlik Ye-50 namunasida kuzatildi. Us'hbu nav namunasining umumiyy hosildorligi 90,2 t/ga ni tashkil yetdi va bu standart Bahodir naviga 234,2% ni tashkil etdi. Umuman, yirik mevali navlarning ko'pchiligi standart Bahodir naviga nisbatan yuqori hosil berdi. Ular umumiyy hosildorligi bo'yicha standart navdan 8,3-66,7% ustun turdi.

**Xulosalar.** O'zbekiston janubida pushtirang pomidor nav va duragaylarini yaratish uchun qimmatli boshlang'ich manba ajratildi. namunalari o'rganildi va istiqbolli nav namunalari ajratildi.

1. Tadqiqotlarda o'rganilayotgan o'rta mevali nav namunalaridan juda ertapishar,: Sevara, Малиновый мёд, Румянный мужичок Ф<sub>1</sub>, Розовый-484, Свадба в Малиновке, А-17, Ляна розовая ва йирик мевали НА-17, НП-7, Э-50, Дусха Сибири Ф<sub>1</sub>, Новичок розовый, Инжир Розовый, Велможа, НС-10, Ф<sub>1</sub> Розовый десертный ajratildi.

2. Ajratilgan o'rta mevali istiqbolli A-17, Ляна розовая nav namunalarida umumiyy hosildorlik 79,0-94,4 t/ga ni tashkil etdi va bu qiyosiy navga nisbatan 20,0-43,4% yuqori demakdir.

3. Yirik mevali NP-7, NA-17, Ye-50 nav namunalarida umumiyy hosildorlik 64,2-90,2 t/ga ni tashkil yetdi va qiyosiy navga nisbatan 53,5-134,6% ga yuqori bo'lди.

4. Sanoat asosida yetishtirishga mos pomidor navlari seleksiyasi uchun boshlang'ich manba sifatida o'simlik balandligi 51-90 sm bo'lган yarim determinant navlar – Румянный мужичок Ф<sub>1</sub>, Розовый-484, Ляна розовая ва yirik mevali NA-17, Ye-50, F<sub>1</sub> Розовый десертный, Новичок розовый, kabi navlar istiqbolli bo'lib hisoblanadi.

5. Ajratilgan nav namunalarini quruq subtropik iqlim sharoitida pushtirang pomidor nav va duragaylari seleksiyasi uchun qimmatli bos'hlang'ich manba bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Томаты. S.F.Gavrish.M.,Veche, 2014.-4s.
2. Pomidor yetishtirish (ochiq maydonda) 5-kitob R.A. Nizomov,© Nashriyot uyi "Tasvir" – 2021, 7-bet.
3. Metodicheskie ukazania po izucheniu i podderjanju mirovoy kollekcii ovochnykh paslenovых kul'tur (tomaty, perцы, baklajany). – L. – VIR. – 1977. – 23 s.
4. Metodika polevogo opyta B.A.Dospexov, 1985. –S. 163-164
- 5.Rukovodstvo po aprobaatsii ovochnykh kul'tur i kormovych korneplodov. (M., «Kolos», 1982). –S. 10-17